O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING ANDIJON
VILOYATI BOSHQARMASI

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: 71-203-11-49, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Ashurov Behzodbek Orifjon O‘g‘li
Sana: 28-12-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

270663 - SONLI

Obyekt nomi: Andijon tumani, Do`ngqishloq MFY hududida Ko`p qavatli turar-joy qurilishi, 5 qavatdan yuqori qurilishi. (E 31)	
Buyurtmachi:	ANEMON ELIT MCHJ
Bosh loyihachi:	"ANDIJON FUQAROLOYIHA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	“ANEMON ELIT” MChJ
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	100117

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-iyuldagi №PQ-5180 sonli qarori.

1.2. Elektron-onlayn auksion natijalari to`g`risidagi 10.03.2022-yilda tasdiqlangan №YU 093-262704-sonli Bayonnoma.

1.3. Andijon viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan 2025-yil 17-iyuldagi №1703-1703203-232752-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi “ANEMON ELIT” MChJ tomonidan tasdiqlangan va “Yangi Andijon shahrida ob`yektlarni qurish va ulardan foydalanish direktsiyasi” DUK direktori hamda bosh loyiha tashkiloti tomonidan kelishilgan 2025-yildagi loyiha oldi topshirig'i.

1.5. Buyurtmachi “ANEMON ELIT” MChJ hamda bosh loyiha tashkiloti o`rtasidagi 17.06.2025-yilda tuzilgan №24-10/2025-sonli loyiha-tadqiqot ishlari uchun shartnoma.

1.6. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 14.10.2025-yildagi №219620212-sonli xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyixaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyiha bosqichida to'liq loyixa smeta xujjatlari.

2.2. Ruhsatnomalar va kelishuv xujjatlar jamlanmasi, umumiy tushuntirish kitob tarzida.

2.3. Muxandislik geologik qidiruv ishlari “GEO VALLEY GOLD” MChJ tomonidan 2025-yilda bajarilgan xulosa.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino						
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**	**Xonadonlar soni**
Ko'p xonadonli turar joy binosi	KO`P QAVATLI TURAR-JOY BINOSI	9	404.5	3243.21	11398.81	47
Jami:			**404.5**	**3243.21**	**11398.81**	**47**

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

Tashqi xavoning minus 16 C^0 li qurilish tumani

Qordan tushadigan yuk - 50 kg/mI

Shamolning ta'sir kuchi - 38 kg/mI

Yozgi xisobiy xavoning issiqlik xarorati + 33 C^0.

Maydon seysmikligi 8-balli.

3.2. Bosh reja:

Ko‘p qavatli E qator 31-sonli turar-joy binosi qurilishi “Andijon tuman “Do‘ngqishloq” MFY (Yangi Andijon shaxri)” xududida joylashgan.

Bosh reja mavjud tarmoqlar va xudud past-tekisliklarini xisobga olgan xolda ishlangan. Maydon shimol tomondan – yo`l bilan, sharqdan – ko’p qavatli uylar bilan, g‘arbdan – ko’p qavatli uylar bilan va janubdan – ko’p qavatli uylar bilan chegaralangan.

Bosh rejaga asosan quyidagi bino va inshootlar joylashgan; loyihaviy ko‘p qavatli E qator №31-sonli turar-joy binosi, bolalar maydonchasi, avtoturargoh, axlat to`kish joyi, yong`inga qarshi gidrant va kichik arxitektura formalar.

Bosh rejada:

- bino va inshootlar, obodonlashtirish gorizontal nuqtalar asosida bog’langan;
- xududga Avtomobil yo’lidan kirish va chiqish tashkil etilgan.
- xududning tasdiqlangan bosh rejasiga asosan to’liq xududda qo’shni obyektlar bilan birgalaikda ishlarni tashkil etish ko’zda tutilgan.
- xududga Avto turargox, bolalar maydonchasi, yashil xudud va dam olish joylari ko’zda tutilgan.

Yong’inga qarshi choralar:

Loyixa yong`in xavfsizligini xisobga olgan xolda, ShNQ 2.01.02-04 “Bino va inshootlar yong`in xavfsizligi” va ShNQ 2.08.02-09* “Jamoat bino va inshootlari”ga asosan avtomatik yong’indan xabarlash tizimlari va YoXB yashiklari bilan jixozlab, loyiha tayyorlangan.

Loyihaviy binoga o’t o’chiruvchi mashinalar mavjud ko’chadan kelishi rejalashtirilgan hamda binoga kirish chiqish yo’llari bosh rejada ko’rsatilgan.

Tashqi o’t o’chirish uchun loyixada, avtomatik yong’indan xabarlash tizimlari ko’zda tutilgan.

Maydon rel`yefi:

Maydon rel`yefi qiyaligi janubdan shimolga qarab katta bo’lmagan xajmda. Belgilar farqi 0,22m mavjud gorizontal belgilar xar 5,0m. Rel`yef mavjud atrofdagi xududga bog’lanib tayyorlangan va yog’in suvlarni tusiqlarsiz maydondan tashqariga chiqishi xisobga olingan. Loyixaviy rel`yef gorizontal yo`nalishda xar 20,0 m qabul qilingan, binolar burchaklari bo’ylab loyixaviy belgilar berilgan va o’tish yo’laklar o’qlariga bog’langan.

Loyixaviy bo’ylama qiyalik yo`l o’qlari bo’ylab 1,4 % dan 3,5 % gacha qabul qilingan.

Maydon qoplamalari quyidagicha loyixalangan:
- yo`laklar, burilib olish maydonlari quyma betonli bordyurli, 20 sm qalinlikdagi shag'al to`shamali asos ustiga 5 sm qalinlikdagi beton to'shama qilib bajarilgan;
- h=5sm qalinlikdagi yuvilgan qum to'shama ustiga h=8sm qalinlikdagi beton plitkali (bruschatka) quyma betonli bordyurli qilib bajarilgan.
Sug'orish tarmog'i:
Sug'orish tarmog'i tuproqli va yig'ma LI-1-BT temirbetonli ariqchalar ko'rinishida bajarilgan. Sug'orish tarmog'i yo'laklar bilan kesishgan joylarda 0,4m o'lchovli asbostsement quvurlar yotqizish orqali amalga oshirilgan.
Ko'kalamzorlashtirish:
Xududda jozibali va mikroklimat xosil qilish maqsadida ko'kalamzorlashtirish ishlari loyixada ko'zda tutilgan. Daraxtlar, bak-butalar rang-barangligini va joylashuvini ularning ketma-ket o'sishini xisobga olgan xolda joylashtirigan.
Xududdagi yomg`ir va sug'orish suvlari ochiq xoldagi beton lotoklar orqali xududdan tashqariga chiqariladi.

3.3. Me'moriy va konstruktiv yechimlari:

*Loyihaviy "Ko`p qavatli turar-joy" binosi* - 9 qavatli, yerto'lali ko'p xonadonli turar-joy binosi ko`p burchak shaklida, quyma yaxlit temirbeton konstruksiyada, rejada o`qlari bo`yicha o`lchami 26,0x15,0 metr. Bino yerto`la qavatining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2,72 m. Binoning birinchi va yuqori qavatlarining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2,76 m.

Binoning yarim yerto'la qavatida yo`lak, tambur, yordamchi xonalar va lift bilan birga:
- umumiy maydoni 29,24 m^2, yashash maydoni 12,47 m^2 dan iborat 1 ta bir xonadonli;
- umumiy maydoni 209,82 m^2, yashash maydoni 126,32 m^2 dan iborat 4 ta ikki xonali, jami 5 ta xonadon joylashgan

Binoning birinchi qavatida:
- umumiy maydoni 167,95 m^2 dan iborat savdo majmuasi;
- umumiy maydoni 53,65 m^2, yashash maydoni 32,8 m^2 dan iborat 1 ta ikki xonadonli;
- umumiy maydoni 64,37 m^2, yashash maydoni 43,21 m^2 dan iborat 1 ta uch xonali, jami 2 ta xonadon joylashgan.

Undan tashqari binoga kirish qismida pandusdan zinapoya katagigacha NBSH *to'siqlarsiz xarakatlanishi uchun sharoit yaratish maqsadida* sariq rangli ogoxlantiruvchi, yo'taltiruvchi, axborot beruvchi taktil qoplamalar qoplash xamda sariq rangli lentalar yopishtirish ko'zda tutilgan, NBSH zinapoyadan 1-qavat lift maydoniga ko`tarilishi uchun yuk ko'tarish moslamasi (gruzopode'mnik) bilan jihozlash ko'zda tutilgan.

Binoning 2 qavatdan 9 qavatgacha
- umumiy maydoni 1720,48 m^2, yashash maydoni 800,96 m^2 dan iborat ikki xonali 32 ta xonadon;
- umumiy maydoni 514,96 m^2, yashash maydoni 345,68 m^2 dan iborat uch xonali 8 ta xonadon, jami 40 ta xonadon joylashgan.

Bundan tashqari, xonadonlar oldi maydoni, zinapoya, lift oldi maydoni, balkon va yo'laklar umumiy maydoni – 506,92 m^2 dan iborat.

Ko'p qavatli turar-joy binosining umumiy maydoni 3243,21 m^2, yashash maydoni 1623,84 m^2 ni tashkil qiladi va xonadonlar soni - 47 donani tashkil etadi. Binoda daxliz, xojatxona, yuvinish-cho'milish xonasi, oshxona, umumiy xona va uxlash xonasi va mexmonxona joylashgan.

Ichki pardozlash ishlari - devor va shiftlar yuqori sifatli vodoemulsiya bo`yog‘i bilan bo‘yash, devorlar pastki qismi moyli bo‘yoqlash, oshxona, xojatxona va yuvinish-cho‘milish xonalari devorlari keramik plitka bilan pardozlash ko‘zda tutilgan.

Pol – yerto`la qavatda beton, keramik plitka, keramogranit va taxta pol qoplamasi qoplanadi. Yuqori qavatlarning honadonlarida laminat, sanitar xonakarda keramik plitka, umumiy yo`lak va zinapoyalarda keramogranit pol qoplamasi qoplanadi. Pol issiqlik qatlami penopleksdan yotqiziladi.

Tashqi pardozlash ishlari - bino tashqi ko‘rinishini sement qorishmali “travertin” suvoq qilish, sokol “keramogranit” plitka bilan pardozlash ko‘zda tutilgan. Tashqi devorlarning issiqlik himoyasi binoning tashqi devorlari bazalt tolali PPJ 120 plitalari bilan qoplanadi. Kozerok shifti alyukabonddan qoplanadi.

Oynalar - PVX rusumli plastikdan, vitrajlar – alyumin profildan o`rnatiladi. Eshiklar - metal, MDF va PVX profildan o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Ichki deraza osti tokchasi (внутренный подоконник) - PVX rusumli plastikdan o`rnatish kerak. Tashqi deraza osti tokchasi (наружный подоконный слив) - ruxlangan po'latdan qoplanadi.

Binoning konstruktiv yechimi QMQ 2.01.03-19 “Zilzilaviy hududlarda qurilish” ning 3.1-jadvali 2-punkti bo`yicha loyihalangan.

Binoning fazoviy bikrligi gorizontal yo'nalishda qavatlararo yopmalar bilan birgalikda, bo`ylama yo`nalishda temirbeton devorlar bilan birgalikda ishlash xisobida bajarilgan. Konstruksiyalar tasnifi: Poydevor - quyma temirbetondan. Devorlar - yerto`la 300 mm, qolgan qavat qismlar 300mm va 200 mm qalinlikda monolit temir-beton va gazablok, kvartiralarni ajratuvchi devorlar 200 mm va 120 mm qalinlikdagi monolit temir-beton va gazablok devorlardan iborat. Devorlarni mustaxkamligini oshirish maqsadida metal ustunlar va metal sarbasta bilan kuchaytiriladi. Zinapoyalar - quyma temirbetondan. Lift shaxtasi - quyma temirbetondan. Orayopma va tomyopmalar - quyma temir-betondan bajariladi. Tom – tekis qoplama bo`lib, tom yopma yumshoq qatlamli, 4 qavatli filizola va qoraqog‘ozli. Tomdan suv tushirish quvurlari - ruxlangan po'latdan qilinadi, po'lat materiali qalinligi 0.7 mm. Quvurlar dumaloq shaklli, □ 150 mm bo'lib tik, vertikal to'g'ri chiziqli ko'rinishda bo'lishi kerak. Otmostka - shag'al to`shamali quyma beton quyiladi.

Bundan tashqari ishchi loyixa-smeta hujjatida axlat to`kish joyi, o`rindiq, LEP-0,4 kV, gidrant, muxandislik tarmoqlari, nogironligi bo`lgan shaxslar uchun maxsus ishlarni bajarish ko‘zda tutilgan.

Ishchi loyihada;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablariga muvofiq amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan ish turlari.

- Energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar ko‘zda tutilgan.
- Issiq suv ta’minoti issiqlik punktidan va bino va inshootlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish talablari maqsadida quyosh batareyasi kollektoridan qo‘shimcha issiq suv ta`minlanishi ko‘zda tutilgan.
- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ya`niy, quyosh panellari o`rnatish ko‘zda tutilgan.
- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismiga mineral vata (bazalt) qoplash ko`zda tutilgan.
- Rom va deraza oynaklari 3 qavatli (2 kamerali) qilinadi.

- Tom yompasining issiqlik himoyasi - mineralvatadan 100 mm.
- Pol issiqlik qatlami – penopleksdan qoplanadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish ob’yektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori talablari bo`yicha:

- binonig kirish qismida me`yoriy qiyalikka ega bo`lgan pandus tutqichlar bilan rejalashtirildi;
- ogoxlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar qoplash;
- nogironligi bo’lgan shaxslar uchun avtoturargoxda mashina-o’rinlari tashkil etildi va maxsus belgilar o`rnatildi;
- nogironligi bo`lgan shaxslar uchun hojatxona tashkil qilish va uni jihozlash;
- hududda va binoda contrast rangli belgilar;
- nogironlar uchun ko`tarish moslamasi o`rnatish;
- nogironlar uchun taktil piktogramma, kirish eshiklariga sariq rangda kontrest belgi va kontrastli lenta.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Obyektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan 2025-yil 17-iyuldagi №1703-1703203-232752-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiq hal qilinadi:

- Ichimlik suv ta'minoti “Andijon suvta`minoti” AJ ning 29.10.2025-yildagi №121-sonl texnik shartasiga muvofiq;
- Elektr ta'minoti “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 17.10.2025-yildagi №03203117865-sonli texnik shartiga muvofiq xal qilinadi.

Issiqlik tizimi va shamollatish tizimi:

Issiqlik ta’minoti tashqi issiqlik tarmoqlari dan amalga oshiriladi. Isitish tizimi ikki quvurli, issiqlik uzatilishiga qarab yotqizilgan, polipropilen va po‘lat quvurlar qabul qilingan. Isitish jihozi sifatida bimetall radiatorlar qo‘llanilgan. Shamollatish tabiiy va mexanik yo‘l bilan bajariladi. Toza havo xonalarga deraza, eshiklar orqali amalga oshiriladi.

Ichimlik suvi va oqova suvi tizimi:

Ichimlik suvi, shaxar ichimlik suvi tarmogidan rejalashtirilgan. Issiq suv ta’minoti markazlashgan issiq suv tarmog‘idan va quyoshli suv isitish kollektorlaridan amalga oshiriladi. Polipropilen quvur qo‘llanilgan. Ichki oqova suv tarmog‘i o‘z oqimi bilan oquvchi, PVX plastmassa quvur bilan loyihalashtirilgan. Oqova suvlarni tashqi oqova suv tizimiga yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

Ichki elektr taminoti:

Elektr taminotining ishonchliligi bo'yicha o'quv binosi III istemolchilarga mansub. Loyihada 380/220 V kuchlanish ichki yoritish ko'zda tutilgan. Yoritish svetodiod chiroqlari yordamida amalga oshirilgan. Guruhli yoritish tarmog'i va rozetkalar tarmog'i PUNP turdagi turli kesim yuzali o'tkazgichlarda,magistral tarmog'i VVG rusumli kabelda loyihalangan. Loyihada SHRV turdagi yoritish, VRU1-23-55UXL4 turdagi quvvatli taqsimlash shitlarini o'rnatish hisobga olingan.

Energiya tejamkorlik:

Bino tom qismiga quyosh panellar jamlanmasi joylashtirilgan. Binoning yo'laklarida xarakat datchikli sivetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan.

Yong`in xavfsizligi tizimi:

Loyiha bilan 1 ta blokdan iborat 9 qavatli turar-joy binosi qurilishi rejalashtirilgan. Yarim yerto‘la qavatidan bevosita tashqariga (binoning asosiy zinapoyasi bilan bog‘lanmagan holda) chiqish uchun evakuatsiya yo‘llari va har bir bo‘linmadan evakuatsiya uchun chuqurchalar

bilan ta’minlangan derazalar mavjud. Yarim yerto‘la, 1-9 qavatlarida (1-qavatda savdo xonalari bilan birgalikda) yashash kvartiralari joylashtiriladi. Tom qismi – yassi. Tom qismiga chiqish ichki zina orqali.

Isitish tizimi – mahalliy.

Konstruksiyalarning chegaralangan holatlariga ko‘ra, binoning olovbardoshlik darajasi – II, konstruktiv yong‘in xavfi sinfi – S0., funksional yong‘in xavfi sinfi – 1.3.

Turar joy binolarining balandligi +25,5 m (eng yuqori qavatining ochiladigan eshigining pastki chegarasigacha).

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida ko‘zda tutilgan tadbirlar:

Loyiha hujjatlarida devorlarning tashqi fasad qismi yonmaydigan (bazalt tolali himoya qatlami ustidan travertin suvoq) materiallar, har bir kvartiradan (chiqish joyi, chetidan (tores) derazagacha eniga 1,2 m. dan kam bo‘lmagan yopiq devor bilan ta’minlangan) ochiq turdagi balkonlar, balkonlararo avariya lyuk va zinalari, tom qismida tutqichlar, tom balandligi o‘zgarish joyida yong‘in zinasi, evakuatsiya yo‘lidagi eshiklar uchun o‘zini o‘zi yopuvchi moslamalar, tashqi yong‘in o‘chirish maqsadlari uchun hududda yong‘in o‘chirish gidrantlari, bino atrofida yong‘in-qutqaruv avtomobillari harakatlanishi uchun qattiq qoplamali yo‘l, kvartiralarning yo‘lak va oshxonalarida yong‘in signalizatsiya, chiqish joylarida yong‘in signalizatsiyasining qo‘lda ishlovchi tashvishgohlari, yong‘in vaqtida qavat yo‘laklaridan tutun tortish, zinapoya kataklari va lift qurilmasining yuqori tarafidan tashqi havo berish tizimlari, yarim yerto‘la qavatiga gaz asboblari joylashtirilmasligi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 14.10.2025-yildagi №219620212-sonli xulosasi.

5.2. Davlat ekologik ekspertiza markazi Andijon viloyati filialining 25.07.2025-yildagi №01-02/03-5736-sonli Davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **15 498 147 309** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

26 227 602 so'mga kamaytirilib, **15 471 919 707** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **12 593 059 802** so'm

Asbob-uskunalar: **1 221 154 222** so'm

QQS: **1 657 705 683** so'm

6.1. Loyixa-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Loyixani ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar loyixa tashkiloti tomonidan dastlabki loyixa chizmalari va smeta xisob-kitoblari to'g'rilanib qayta to'ldirildi.

6.3. Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudradchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Ekpertizaga oid ko‘rib chiqish jarayonida ishchi loyihaning bo'limlari yuzasidan berilgan e'tiroz va kamchilliklarni to'liq bartaraf etish lozim.

6.5. Ushbu ekspertiza xulosasida pudratchining boshqa harajatlari, arxitekturaviy yechimlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Andijon viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi. Vaholanki, Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 14.10.2025-yildagi №219620212-sonli xulosasida arxitekturaviy yechimlari, obyektning hududda joylashgan o`rni

va oraliq masofasi bo`yicha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan.

6.6. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar, shu jumladan, O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi bilan kelishish lozim.

6.7. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.8. Buyurtmachi loyiha xujjatlarini tasdiqlashdan oldin, obyekt loyixa-smeta xujjatlarini qisqa muddatlarda ko‘rib chiqib, yig‘ma ekspertiza xulosalari taqdim etilishi talab etilganligi inobatga olib, normativ talablarga mos kelmagan loyixa yechimlarini ShNQ talablariga moslashtirish yoki ShNQ ning o‘sha bandiga tegishli o‘zgarishlar kiritish sharti bilan tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

6.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.12.2021-yildagi “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-46-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.02.2020-yildagi 93-sonli qarorlariga qat`iy rioya etilsin.

6.10. Loyihani amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli farmoni tegishli bandlari bajarilsin.

6.11. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019-yil 19-avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan “Loyixa-tadqiqod ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi” Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.

6.12. Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish obyektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2024 yildagi PQ-266 sonli qarori bilan bir vaqtda ShNQ 2.01.02-04, ShNQ 2.04.09-21, ShNQ 2.07.01-23, ShNQ 2.08.01-24, ShNQ 2.08.02-23, ShNQ 2.08.04-24, ShNQ 2.07.02-24 hamda ShNQ 2.08.07-22 talablarini hisobga olgan holda loyihalanishi tavsiya etiladi.

6.13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.14. Taqdim etilgan umumiy miqdori buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va 12% QQS bilan 15 498 147 309 so'mni tashqil qilgan. Ekspertiza ko'rigidan so`ng 26 227 602 so'm o`zgargan ish hajmlari hisobidan kamaytirildi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini xisobga olib ishchi loyixa-smeta bo`yicha “Andijon tuman “Do‘ngqishloq” MFY (Yangi Andijon shaxri) xududida ko`p qavatli turar-joy qurilishi, 5 qavatdan yuqori bino va inshootlari qurilishi. (E qator 31-uy)”, obyektini quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ko'ra keyingi kelishuv va tender savdolarini o'tkazish uchun tavsiya etiladi:

Qurilish maydoni - 404,5 m^2;

Umumiy maydon - 3243,21 m^2;

Yashash maydoni	- 1623,84 m^2;
Qurilish hajmi	- 11398,81 m^3;
Me'yoriy mehnat sarfi	- 104 866,75 odam/soat
Joriy narxdagi tavsiyaviy (boshlang'ich) miqdori 12% QQS bilan (Buyurtmachining boshqa harajatlarisiz)	- 15 471 919 707 so'm.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7.3. ShNQ 1.03.06-13da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

7.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

Bosh ekspert: Sadiqov Alisher Odiljonovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Primqulov Raximjon Ibragimjonovich, Madmarov Baxtiyor Baxodirovich, Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Abdurashidov Miryusup Kobulovich, Raxmatullin Dil’shad Xamzayevich, Asqarov Otabek Fazlidinovich, Soliyev Joxongir Maripjon O‘g‘li